

INSON QADRI IJODKOR TALQINIDA

*Toshkent pediatriya tibbiyot institutining
Tibbiy pedagogika va davolash fakulteti tyutori*

Begatov Jasurbek Numonjanovich

*Toshkent pediatriya tibbiyot institutining
2-pediatriya va tibbiy biologiya fakulteti
209-guruh talabasi*

Ibragimova Iroda Yo'ldosh qizi

Annotatsiya: Shoir Berdaq ijodiga nazar solar ekanmiz uning qanchalar ma'noli va oddiy xalq uchun juda tushunarli ekanligiga ishonchimiz komil bo'ladi. Uning ijodi juda ko'plab she'rlar va dostonlarni qamrab olgan. Har bir she'r bir olam, bir xotirani esga soladi. Shoirning „Ketgan-kelarmi“ she'ri esa juda ta'sirli, mutolaa qiluvchini o'ylashga, fikrlashga insonlar qadrini, vaqt g'animatligini tushunib yetishga va his qilishga undovchi o'ta ta'sirli she'r ekan. Har bir satr, hatto so'z olam-olam haqiqatlarni o'zida jamlagan ekan.

Kalit so'zlar: Shoir, she'r, so'z, ijod, qadr-qimmat, vaqt, inson, fikr.

Qoraqalpoq adabiyotining asoschisi Berdimurod Qarg'aboy o'g'li Berdaq 1827-yili Orol dengizi janubidagi Oqqal'a ovuli (hozirgi Mo'ynoq tumanida) kambag'al baliqchi oilasida tavallud topdi. [1] Berdaq bolaligidan qiyinchiliklarda o'sadi, otasi bolalarini boqish uchun baliqchilik, mardikorlik, qo'ldan kelgan barcha ishlarni qilar edi. Kunlar o'tib shoirning otasi Qarg'aboyning birinchi xotini vafot etganidan so'ng u to'rtta yosh farzandlari bilan qoladi va o'zi bu bolalarni yolg'iz eplay olmasdi, shuning uchun unga bir turmush o'rtoq zarur edi. Bu kambag'al insonni uylanishi ham qiyin edi. Chunki u davrda kelinning qalin pulini beradigan sharoitda emas edi. U o'ziga o'xshagan bir kambag'al ayolni topib, uylandi. Uning ikkinchi ayolidan bizning taniqli shoirimiz dunyoga keldi. Uning uch aka-ukalari bor edi bular: Fozilbek, Berdibek, Kalibeklardir. Shoirning hayotidagi xursandchilik, tug'ishganlari orasida uzoq davom etmadi. O'n yoshida u o'z yaqinlaridan ya'ni, ota-onasidan judo bo'ldi.

Ko'p kishilik Qarg'aboy va Qoraqorali oilasi parchalanib, bir burda non va boshpana topish uchun har tomonga tarqalib ketadilar. Berdaqni, Qarg'aboyning akasi Qoshqarboy va uning o'g'li Nazarbiy o'z qaramog'iga oladilar. Bu yerda Berdaq ularni mollarini boqadi va uy ishlariga yordam beradi.

Shoir amakisining oilasida ham baxtli hayot kechirmaydi. Nazarbiyning xotini fe'li torroq, badxulq ayol bo'lganligi uchun shoirni yetimligini eslatib turtkilayveradi. Shu tariqa shoir yetimlikning barcha ranju mashaqqatlarini boshidan kechiradi. Shunga qaramay bu yillar davomida Berdaq o'qish va yozishni

o'rganadi. Avval ovul maktabida, keyin esa «Qoraqum eshon» madrasasida taqsil oladi. U yerda u o'z bilimini yanada oshiradi. Ziyarak xotira va mehnatsevarlik uning o'qimishli bo'lishi uchun unga juda katta yordam beradi. Berdaqda yoshligidanoq shoirlik qobiliyati paydo bo'ladi va badiiy adabiyotga bog'lanib qoladi. O'sha paytlarda bo'lajak shoir ertaklarni, afsonalarni va mashhur shoirlarning she'rlarini eshitib va qiziqib yurar edi. Uning she'rlarini o'sha vaqtdagi mashhur baxshilar qo'shiq qilib aytardilar. O'zining «Ahmoq podshoh» asarida Berdaq o'zini ertaksevarligini aytgan. O'n ikki-o'n uch yoshida Berdaq asarlar yozishni boshlaydi, birinchi asarlari oddiy mavzulardan iborat bo'lgan. Keyinchalik esa u to'ylarda baxshi bo'lib xizmat qilgan.

Bolalikdan ko'ngliga she'r uchquni tushgan bo'lajak shoir Alisher Navoiy, Fuzuliy, Kunxo'ja kabi turkiy dunyoning mashhur so'z san'atkorlari ijodini sevib mutolaa qiladi. «Izlar edim» she'rida uning o'zi bu haqda shunday yozadi.

Navoiydan savod ochdim,
Fuzuliydan durlar sochdim,
Maxtunquli o'qiganda,
So'zin tavof aylar edim.

Shoir hayotiga nazar solsak, Berdaqning keyingi umri ham qashshoqlik, yo'qchilik bilan o'tgan. Shoir o'zining hayoti to'g'risida ko'p narsalar yozadi. Berdaq «Yoz kelarmi» degan qo'shig'ida o'zining turmush ahvoli haqida:

Yovganim yo'q ichmakka,
Ko'ligim yo'q ko'chmakka.
To'shak yo'q to'shamakka,
Sho'rli elga yoz kelarmi.

Mana bu parchadan Berdaqning turmushi qanday og'ir bo'lganini bilib olishimiz mumkin. Lekin shunga qaramay shoir ijodni tashlamadi, hayotidan nolimadi, xalq dardini qo'shiqqa solib, kuylab ularga dalda berdi. Shoir «Oydo'stbiy», «Omongeldi», «Ernazarbiy» va boshqa ajoyib asarlar yozgan, shoirning bu asarlarida, vatanparvarlik haqida fikrlarini bildirganini ham ko'rishimiz mumkin. Berdaqning ko'pgina asarlarida hayotimizning haqiqiy tomonlari ko'rsatilgan, Xiva xonligining hokimligi paytlari va yurtning rus imperiyasiga qarshi kurashish ham eslatilgan.[2]

Diqqat qilinsa, Berdaq o'z hayoti va ijodining butkul maqsadi aksariyati kambag'al, beva-bechoralarning ayanchli hayoti, ularning og'ir mehnati, boy zodagonlarning ularga nisbatan qilgan shafqatsizligi, zo'rovonligi va adolatsizligiga bag'ishlangan. Uning she'rlarida insonparvarlik, tenglik, saxiylik, adolat, vatanparvarlik, mehr-shafqat, qahramonlik va mardlik, mustaqillik, milliy ozodlik va haqiqat uchun kurash, mehr-muhabbat kabi umuminsoniy va milliy qadriyatlar o'z aksini topgan.

Berdaq ijodidan eng o'quvchini e'tiborini tortgan sherlardan biri bu „Ketgan kelarmi” she'ridir. Bu she'rni o'qir ekanmiz inson qadri, yaqinlarimiz ,umr qadriyu hisobi ko'z oldimizga keladi. E'tibor beramiz, she'rdan parcha keltiramiz:

Ketgan kelarmi?
Qo'llaringa qo'biz olib,
Yig'lasang-da dod-voy solib,
Es-xushdan ayrilib qolib,
O'ylab ko'r: ketgan kelarmi?

Boshingni toshga ursang-da,
Qayrilsang, bo'yning bursang-da,
Termulib yo'lda tursang-da,
O'ylab ko'r: ketgan kelarmi?

Shoir Berdaqqa inson qadri tushunchasi juda tanish va xissiyotlarga boydir. Axir shoirimiz yolg'izlik, yetimlik, ota-onasiz qolish barcha-barchasini boshdan o'tkazgan ijodkorku. Odamlar yaqinlarimizni asraylik ,keyin ularni hech qachon qaytara olmaymiz. Shoir she'rlariga e'tibor berib qarasak, uni tahlil qilishga kirishamiz. Shoir she'r orqali hech kim u dunyodan qaytib kela olmasligini ifodalaydi. Inson bolasi hech qachon o'limga qarshi chiqolmaydi. Shoir aytadi Ey inson bolasi yig'lasangda butun dunyoga ,kuy bastalab aytib bersang ham, es-xushungdan ,hatto ayril ,o'yla -fikrla ketgan bir umrga ketdi. Boshingni toshga urib yor, o'zinga har qanday ziyon yetqazsang ham butun umr yo'lida kutsang ham ,ketgan kelmaydi afsus. Shu o'rinda keyingi to'rtliklarni e'tiboringizga namoyon etmoqchiman,

Qorayerni tepgan bilan,
Qabr quchib-o'pgan bilan,
Ko'z yoshni sel etgan bilan,
O'ylab ko'r: ketgan kelarmi?
Dunyo molini ochsang ham,
Xazina og'zin ochsang ham,
Qush bo'lib, ko'kka uchsang ham,
O'ylab ko'r: ketgan kelarmi?

Do'stlar vaqt o'tib odamzot nima qilsa ham endi yo'qotgan insonini topa olmaydi. Yaqinlarimizni borida qadriga yetaylik ,qabriga borib gul qo'ygan bilan, qabrni quchib yig'lagan bilan hech kim qaytib kelmaydi. Boylik, mansab, pul ,ish hammasi topiladi faqat qadr donlar yagona .Shuncha mol-u dunyo to'pladingiz ,uni nima qilasiz o'zingiz bilan olib keta olasizmi? Shunday damlar keladiki dunyo-dunyo pullar hech nima qila olmaydi. Afsus, nadomat juda yomon hozirdan harakat qilaylik oilani asrashga. Odam bolasi qo'lidan kelmaydigan ishlar juda ko'plab

topiladi,Shoirimiz ham berib o'tadilar qush bo'lib uchib ko'rchi,baliqday suzib ko'rchi ,hech qaysi inson qilmaydigan ishlarni qil, o'y lab ko'r: ketgan kelarmi?
Keyingi misralar esa bizni shukurga ,Haq olib qo'ysa inson qo'lidan hech bir ish kelmasligini ko'rsatib beradi.

Falaq aylanishi yomon,
Shox-gadoni qo'ymas omon,
Mangu yashamas hech bir jon,
Bandasi buni bilarmi?

G'am ema,yeg' aqli hushing,
Qaytib qo'nmas uchgan quashing,
Haqqa shukur bo'lsin ishing,
O'zi opketsa kelarmi?

Shoirimiz islom dini e'tiqodchisi bo'lgan va har bir she'rida Allohning qudrati ,unga itoat haqida misralar bor.Bu to'rtlik oraqali shoirimiz barchamizni ogohlikka chaqiryapti.Har bir insonning oxirgi kuni bo'lishini eslatib o'tadi.Dunyo bizdan ham,sizdan ham qoladi yaqinlarimizni ardoqlaylik.Inson eng oliy mahluqotdir,uning qadri ham juda muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, hammamizning juda yaqin insonlarimiz, qadr donlarimiz, oila a'zolarimiz, do'stlarimiz bor, shukurlar bo'lsin.Ularni yo'qotib qo'yishni ko'z oldingizga keltirganmisiz? Yo'q hech qachon inson zoti bor ekan ,doimo qadr donlari bag'rida bo'lishini o'ylaydi.Shoirimiz bo'lsa bir vaqtda ham otadan, ham onadan ayrilgan,buni azobini ko'pchilik bilmaydi va his qilolmaydi ham. Shoir Berdaq o'zining hayotidan kelib chiqib bu misralarni bitadi va bizday yoshlarni yaqinlarimiz,barcha insonlarni hurmat qilishimiz,yo'qotib qo'yishdan avval bor mehr,e'tiborimizni berishga undaydi.Vaqt oliy hakam hech kim, hech qachon uni ortga qaytara olmaydi.Bizday oddiy insonlar esa dilozor bo'lmaylik . Axir bilmaymiz ertaga kim boru, kim yo'q.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Berdaq "Tanlangan asarlar" Ibrahim Yusupov, Baxtiyor Nazarov, Kenesboy Yusupboyev.
2. Berdaq "Xalq uchun" kitobi Ergash Ochilov tarjimasini.